



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

## **IMPROVING ACTIVITIES TO COMBAT DRUG ABUSE AND DRUG-RELATED CRIMES IN OUR COUNTRY**

**Aynidinov Sardor Ikrom o‘g‘li**

Master’s Student, Theory and Practice of Criminal Law Enforcement Program  
Tashkent State University of Law Employee of the Public Security Department of the  
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

E-mail: [sardorikromovich41@gmail.com](mailto:sardorikromovich41@gmail.com)

***Abstract:** This thesis analyzes the modern transformation of drug trafficking in the context of information and communication technologies and cyberspace development, specifically focusing on the illicit circulation of synthetic drugs and the trend of criminological "rejuvenation" (spread among minors) of this type of crime. Within the framework of the study, gaps in national legislation are identified, and the necessity of improving legal principles and the system of competent state bodies is justified. To enhance the effectiveness of combating crime, scientific and practical proposals have been put forward, including utilizing the "Mahalla Seven" system for the early detection of clandestine drug laboratories, categorizing regions by risk levels ("red", "yellow", "green"), and implementing digital solutions through the "AI Hackathon" project.*

***Keywords:** information technologies, cyberspace, drug crime, narcotics, criminological rejuvenation, national legislation, Mahalla Seven, regional categorization, AI Hackathon, international experience.*

### **MAMLAKATIMIZDA GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.**

*Aynidinov Sardor Ikrom o‘g‘li - Toshkent davlat universiteti, Jinoyat  
qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyot yo‘nalishi magistranti, O‘zbekiston  
Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti xodimi*



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisda axboroto-kommunikatsiya texnologiyalar va kiber-makon rivojlanishi sharoitida narkojinoyatchilikning zamonaviy transformatsiyasi, xususan, sintetik narkotik vositalarning noqonuniy muomalasi hamda ushbu jinoyat turining kriminologik “yosharishi” (voyaga yetmaganlar o‘rtasida tarqalishi) tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sohadagi milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, qonunchilik prinsiplari va vakolatli davlat organlari tizimini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida yashirin narkolaboratoriyalarni barvaqt aniqlashda “mahalla yettiligi” tizimidan foydalanish, hududlarni xavf darajasiga ko‘ra toifalash (“qizil”, “sariq”, “yashil”), “AI Hackathon” loyihasi orqali raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot texnologiyalari, kiber-makon, narkojinoyatchilik, narkotiklar, kriminologik yosharish, milliy qonunchilik, mahalla yettiligi, hududlarni toifalash, AI Hackathon, xalqaro tajriba.*

Bugungi kunda narkojinoyatlarni sodir etish statistikasining keskin oshayotganligi millat genofondi va sog‘lig‘iga putur yetkazish bilan birga, davlatlarning iqtisodiy barqarorligi, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy negizlari hamda davlat xavfsizlik tizimiga ham bevosita xavf tug‘dirmoqda. Shu bois, jahon hamjamiyati, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan narkotiklar nazorati bo‘yicha qabul qilingan xalqaro konvensiyalar ijrosini ta‘minlash hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas talabidir.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi oqibatida global narkobozor tizimida tubdan o‘zgarish kuzatilmoqda. An‘anaviy tabiiy narkotiklar o‘rnini sun‘iy usulda olingan va inson ruhiyatiga tez hamda halokatli ta‘sir ko‘rsatuvchi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

egallamoqda. Eng xavflisi, narkojinoyatga qo‘l urayotganlar hamda ushbu illat qurboniga aylanayotganlar orasida yoshlar va voyaga yetmaganlar ulushining ortayotganligi, boshqacha qilib aytganda ushbu turdagi jinoyatchilikning kriminologik «yosharishi» tendensiyasi yaqqol namoyon bo‘layotganidir.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda narkotik vositalarni internet tarmoqlari, maxfiy messenjerlar hamda masofaviy, ya’ni shaxsiy aloqasiz “zakladka” (yashirin joylab ketish) usulida sotish va yetkazib berish sxemalari keng ildiz otmoqda. Bunday sharoitda jinoyatchilikni jilovlashning an’anaviy, ya’ni faqat jazo choralari qo‘llash yoki jinoyat sodir qilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga qaratilgan klassik metodlari kutilgan samarani bermayapti. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini hamda giyohvandlikka qarshi kurashishning kiber-kriminologik mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni taqozo etadi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish” mavzusidagi xalqaro forumdagi nutqlarida, jinoiy guruhlarning shifrlangan aloqa kanallari, kontaktsiz muloqot va murakkab moliyaviy vositalardan foydalanayotgani narkotiklarga qarshi kurashishda bizdan zamonaviy yechim va yondashuvlarni talab qilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Muammoga kriminologik nuqtayi nazardan yondashgan olim B.E.Berdialiyev giyohvandlikka qarshi kurash borasida quyidagi fikrlarni bayon qilgan: “Giyohvandlikka qarshi kurash mahalla hayotining yot yo‘nalishi emas, balki, hudud xavfsizligi, yoshlar siyosati, oilaviy barqarorlik, bandlik va ma’naviy muhit bilan chambarchas bog‘liq ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Ana shundagina mahallada giyohvandlikka qarshi kurashish tasodifiy tadbirlar yig‘indisi emas, balki, aniq



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

mas’uliyat, aniq harakat, aniq natija va aniq javobgarlikka asoslangan mustahkam tizim sifatida shakllanadi” [1, 15]. A.M.Payziyevning ta’kidlashicha, mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [2, 43]. Haqiqatdan ham giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi kunda mazkur yo‘nalishda hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Boshqacha qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasining mutlaqo yangi va transmilliy shakllari paydo bo‘layotgani, axborot texnologiyalari orqali ularning tarqalish ko‘lami ortib borayotgani hamda yoshlar o‘rtasida narkotik moddalarga ruju qo‘yish holatlarining kuzatilayotgani ushbu muammoning kriminologik dolzarbligidan dalolat beradi.

So‘ngi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini zamon talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-73-son farmoni bilan tasdiqlangan Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya va 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son farmoni bilan tasdiqlangan Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini huquqiy va amaliy jihatdan takomillashtirishdan avval, tizimda saqlanib qolayotgan muammolarni kriminologik jihatdan o‘rganishimi lozim. Bizningcha, mazkur faoliyatga oid



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

qonunchilik asoslari va huquqni qo‘llash amaliyotida mavjud bo‘shliqlar hamda muammolar sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun belgilangan javobgarlik mexanizmlari ushbu turdagi jinoyatchilikning zamonaviy transformatsiya shakllariga to‘liq javob bermaydi;

Ikkinchidan, sintetik narkotik moddalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yashirin narkolaboratoriyalarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish faoliyati bugungi kun talablari darajasida emas;

Uchinchidan, amaldagi qonunchilikda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi asosiy prinsiplar va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘liq va tizimli ravishda belgilanmasdan qolgan;

To‘rtinchidan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalarining aniq ro‘yxati, ularning vakolatlari, shuningdek mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari huquqiy jihatdan qat’iy mustahkamlanmagan;

Beshinchidan, narkojinoyatlarni barvaqt aniqlash hamda unga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko‘maklashgan ishonchli shaxslarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy-huquqiy qo‘llab quvvatlashning aniq mexanizmlari joriy etilmagan;

Oltinchidan, respublikadagi umumiy narkovaziyatni raqamli texnologiyalar va kriminologik prognozlash metodlari asosida tahlil qilish hamda monitoring qilib borish amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan;

Yettinchidan, ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

amalga oshiruvchi quyi bo‘linmalari mansabdor shaxslari narkojinoyatlarni aniqlash yuzasidan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emas.

Yuqorida etilgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini strategik yo‘naltirish uchun tizimli ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish taqozo etiladi. O‘zbekiston sharoitida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi xorijiy tajriba va takliflarni qonunchilik hujjatlarida aks ettirib, huquqni qo‘llash amaliyotga tatbiq etish lozim bo‘ladi.

Birinchi navbatda, narkojinoiy uyushma, yashirin narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta‘minlash, shuningdek, narkotiklarni noqonuniy muomalaga kiritish bilan bog‘liq qilmishlarga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini inobatga olgan holda homiylik (rahnamolik) qilish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilash lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, Portugaliya tajribasini hisobga olgan holda Jinoyat kodeksining 273-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilishda moddalar yoki preparatlarni voyaga yetmaganlarga yoxud ruhiy jihatdan zaif shaxslarga berish, ko‘p sonli shaxslar o‘rtasida tarqatish, har qanday shaklda voyaga yetmaganlar yoki ruhiy jihatdan zaif shaxslarning ko‘magidan foydalanish, ta‘lim tashkilotlari hamda ularga tutash hududlarda, internet tarmog‘idan foydalanib, o‘tkazish holatlarini og‘irlashtiruvchi band sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

Yashirin narkolaboratoriyalarni barvaqt aniqlash va ularga chek qo‘yishda, bugungi kunda bevosita aholi orasida faoliyat yuritayotgan “mahalla yettiligi” tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish strategik ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, “mahalla yettiligi” a‘zolari uchun maxsus o‘quv-amaliy seminarlari tashkil etilib, ularga zamonaviy narkolaboratoriyalarning o‘ziga xos tashqi va kriminologik belgilari haqida batafsil tushuntirish berilishi lozim. Ushbu chora mahalladagi shubhali shaxslar hamda



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

holatlar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezkor profilaktik axborotlarni yetkazishning xavfsiz va tizimli kundalik monitoring mexanizmi yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” 1999-yil 19-avgustdagi 813-1-son qonunida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi asosiy prinsiplar va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, ushbu faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari ro‘yxati, ularning vakolatlari, shuningdek mansabdor shaxslarning huquqlari va majburiyatlari nazarda tutilmagan.

Tahlillar asosida narkotiklar va prekursorlar muomalasi, shuningdek, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohalaridagi asosiy prinsiplar etib qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, davlat, jamiyat va shaxsning uzviy hamkorligi, davlat nazoratining qat‘iyligi, giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olishga doir chora-tadbirlarning ustuvorligi, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya faoliyati samaradorligi, javobgarlikning muqarrarligini belgilashimiz mumkin.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari ro‘yxatiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va tibbiyot muassasalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi.

Mazkur ro‘yxat asosida mazkur sohadagi har bir davlat organining vakolatlarini belgilab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur sohada qaysi davlat organi nima vazifani bajarishini belgilanmasligi, kelgusida topshiriqlar ijrosini ta’minlashda sansolarlikka yo‘l yo‘yilishiga hamda ish samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, narkojinoyatlarni aniqlash ularni oldini olish faoliyatiga ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tizimining yo‘lga qo‘yilishi jinoyatlarni fosh etish ko‘rsatkichining o‘shishiga hamda jamiyatda bu illatga nisbatan murossasiz kayfiyat shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, AQSH qonunchiligida, narkojinoyatlarni fosh etishda faol ishtirok etgan shaxslarni 30 ming AQSH dollari miqdorida bir martalik pul mokofoti bilan rag‘batlantirish nazarda tutilganligini ta’kidlash o‘rinli.

Narkojinoyatlarga qarshi kurashish tizimida respublikadagi narkovaziyatni tahlil qilish va prognozlashtirish, shu bilan birga fuqarolarning mavjud holatdan xabardorlik darajasini oshirish strategik ahamiyatga ega. Bizning taklifimizga ko‘ra, narkojinoyatlarni doimiy ravishda tahlil qilgan holda hududlarni “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratish tartibini joriy etish lozim. Bu orqali, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, individual yonashuvlar asosida maqsadli chora-tadbirlar belgilash imkoniyati yaratiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev narkojinoyatlarning yangi turlariga qarshi murosasiz kurashish hamda narkotiklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan “AI Hackathon” milliy loyihasini e’lon qildilar. Xo‘sh ushbu loyiha nimani anglatadi? Xakaton – bu odamlar nisbatan qisqa vaqt ichida (masalan, oflayn shaklda 24 yoki 48 soat, onlayn tarzda esa bir necha kun davomida) tezkor va hamkorlikdagi muhandislik-loyihalash faoliyati bilan shug‘ullanadigan marafondir [3]. “AI Hackathon” milliy loyihasi esa bevosita sun’iy intellektga asoslangan dasturlar yechimlar ishlab chiqish tadbiri hisoblanadi.

Narkojinoyatlarga qarshi kurashishda “AI Hackathon” milliy loyihasi bilan bir qatorda, muqaddam narkojinoyat sodir etgan shaxslarning kelgusida jinoyat sodir etishlarining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy moslashtirishga, shuningdek, yoshlar o‘rtasida bu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi loyihalarni ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu yondashuvning amaliy natijasi sifatida AQSHning “Life Skills Training” (hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish) nomli ijtimoiy moslashtirish dasturini keltirish mumkin. Mazkur tajriba amaliyotga tatbiq etilgan maktablarda giyohvandlik vositalarini iste‘mol qilish holatlari keskin kamayishiga erishilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu sohadagi amaldagi qonunchilik hujjatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali sodir etiladigan narkojinoyatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomi va ta’riflari hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan narkojinoyatlarda ishtirok etuvchilar xizmat vazifalaridan kelib chiqib, narkoshop-administrator (tarmoq operatori yoki treyder), zakladchik (ko‘mib ketuvchi yoki yashirib ketuvchi), kuryer (yetkazib beruvchi yoki omborchi) kabi toifalarga ajratiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, taklif etilayotgan qonunchilik va amaliy-tashkiliy



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

islohotlar respublikada narkojinoyatchilik dinamikasini jilovlash, axborot makonidagi kiber-tahdidlarni bartaraf etish va aholining, ayniqsa yosh avlodning sog‘lom va xavfsiz muhitda kamol topishini ta‘minlaydigan kompleks milliy xavfsizlik tizimini yaratishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. B.E.Berdialiyev. Mahallalarda giyohvandlikka qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish. – Xalqaro ilmiy-amaliy jurnal (O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti), 2026.;

2. A.M. Payziyev. Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlar: millat genofondini muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari. – Xalqaro ilmiy-amaliy jurnal (O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti), 2026.

3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Hackathon>

4. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-son qonuni // [Elektron manba]. <https://lex.uz/docs/-86044>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son Farmoni // [Elektron manba]. <https://lex.uz/docs/-7818774>;

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6-maydagi PF-73-son Farmoni // [Elektron manba]. <https://lex.uz/docs/-6912475>.